

Mustaqillik Yillarida O'zbekistonda Haykaltaroshlik San'ati Va Uning Rivojlanishi

*Sadriddinova Farangiz Barkamol qizi*¹

Annotatsiya: Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar san'atimizni qayta idrok etish va uni ijtimoiy ongining bugungi darajasiga muvofiq san'atshunoslik ilmining talablari asosida baholash zaruriyatini taqozo etadi. Ushbu tadqiqotda – tasviriy san'at, xususan uning dastgohli haykaltaroshlik va monumental (mahobatli) haykaltaroshlik turlarining bugungi kundag taraqqiyoti, badiiy izlamish jarayonlari, asosiy rivojlanish tamoyllari aks ettirilishiga harakat qilingan. Shuningdek milliy san'atimizning qadimiy tarixi, ildizlari, yaqin o'tmish tasviriy san'atimiz rivojlanish bosqichlari haqida zaruriy ma'lumotlarga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Haykaltaroshlik, relyef barelyef, gorelyef, dastgohli, monumentla, dekorativ haykaltaroshlik, mahobatli haykaltaroshlik, Alisher Navoiy haykali, Amir Temur haykali, Ahmad al – Farg'oniy haykali, Jaloliddin Manguberdi haykali.

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy sohalarida, ayniqsa ta'limni isloh qilish borasida misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jumladan, Oliy Majlisning 1997 – yil 29 – avgust IX sessiyasida qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi XXI asrda O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish borasidagi strategik yo'nalishini belgilab berdi. Ma'lumki tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Shu jihatdan ha umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb – hunar kollejlari yosh avlodni har jihatdan barkamol inonlar qilib tarbiyalashda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. San'atkor o'z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalab tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va fikrlarini tasvirlaydi.[1]

Buyuk vatandoshlarimiz – Imom Buxoriy, Hakim Termiziy Xo'ja Baxouddin Naqshbandiy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'oniylarning nomlari qayta tiklanmoqda. O'tmishning buyuk mutafakkirlari, shoirlari va musavvirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muxammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Axmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Muhmmad Murod Samarqandiy hamda jadidchilik harakati vakillarining nomlari g'urur bilan tilga olinmoqda.

O'zbekistonda yangi ma'naviy g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishkar doirasini kengaytirib, badiiy tafakur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma'naviy – axloqiy qadriyatlarining keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyllari me'morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida va san'atning boshqa turlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Lkin Mustaqillik yillaridagi barcha san'at turlari qatorida haykaltaroshlik san'atimiz, uning rivojlanishi haqida alohida va keng qamrovli tadqiqotlar hali yetarl emas. Shu jihatdan olib qaralganda tasviriy san'at tarixi, jumladan, Mustaqillik yillaridagi haykaltaroshlik san'atimiz rivoji, yangi davrdagi ijodiy o'zgarishlarni yanada yaxshiroq o'rganish va ularni yosh avlodning badiiy tarbiyasida qo'llash muhim vazifalardan hisoblanadi. [2]

Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlari borliqdagi hajmga ega bo'lgan barcha shakllar asosida tasvirlanadi. Mayda haykalchalardan tortib, park va hiyobonlarga

¹ Namangan davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1- bosqich talabasi



o'rnatiladigan turli mahobatli haykallar, yodgorliklar, binolarning devorlariga ishlanadigan relyeflar, tanga, nishon, medal kabilarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlaridir.

Haykaltaroshlik asarlari o'zining ishlatilish joyi, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatda dumaloq va qabari ko'rinishda bo'ladi.

Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'riladi. Qabariq haykallarni relyef deb ataladi. Relyef fransuzcha so'z bo'lib, „yuz“ degan ma'noni anglatadi.

Relyef o'z navbatida ikki turga bo'linadi. Ular barelyef va gorelyefdir. Barelyef ham fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, „past“ relyef degan ma'noni anglatadi. Barelyefda haykal tekis yuzaga nisbatan bir oz qabargan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy hajmining yarmidan oshmaydi. Tanga, nishon, orden va medal yuzalaridagi bo'rtma va tasvirlar bunga misol bo'la oladi.

Gorelyef so'zi ham fransuzcha bo'lib, „baland“ relyef ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy xajmining yarmidan oshgan bo'lishi shart. Gorelyefga ko'plab tarixiy voqealarga bag'ishlab ishlangan yodgorliklar misol bo'lishi mumkin. [3]

Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi, lekin xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz.

Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi.

Istirohat bog'lari, xiyobonlar, ko'chalar, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning asarlar ko'rgazmalarga, interyerlarga qo'yish uchun mo'ljallab ishlanadi.

Dastgoh haykaltaroshligining ko'rinishlaridan biri bu byustdir. U odam portretini gavdasi bilan aks ettiruvchi dumaloq haykallar gruppasiga kirib, o'zida bir qator obrazlarni mujassamlashtirgan haykallar kompozitsiyasi tarzida bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqilligi milliy tasviriy san'atni taraqqiyotiga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Bu davrda tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika turlari yanada rivojlandi. San'atning janrlarida o'nlab rassom va haykaltaroshlarning erkin ijodiy faoliyati keng tus oldi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining „Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab – quvvatlash chora – tadbirlari to'g'risida“gi Farmoni, 1997 – yil 31 – mart, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, T. „O'zbekiston“ 1997 – yil, shular jumlasidandir. Mustaqillik ne'matidan bahramand bo'lgan keka, o'rta va yosh avlod rassomlarimiz ijodida ham ijodiy ko'tarinkilik ko'zga tashlanadi. Buni M. Saidov, I. Qo'ziboyev, B. Boboyev, V. Burmakin, M. Yo'ldoshev, J. Quttimurodov, T. Mirjalolov, T. Quryozov, A. Ikromjonov, J. Umarbekov, B. Jalolov, A. Mirzayev, Z. Faxriddinov, R. Xudoyberganov, N. Oripova, A. Mo'minov, A. Nuriddinov kabi rassom haykaltaroshlar ijodida yaqqol ko'rish mumkin. [4]

Mahobatli haykaltaroshlik va uning rivojlanishi.

Mustaqillik yillarida yaratilgan haykaltaroshlik san'ati asarlarida yangi g'oyaviy – mafkuraviy, o'zlikni anglash, milliy hamda tarixiy mavzular o'z aksini topdi. Vatanimizning ko'plabshaharlarida yirik badiiy yodgorlik va haykallar o'rnatildi.



Istiqlolning dastlabki yillaridagi haykaltaroshlik san'ati asarlaridan biri poytaxtning Milliy bog'ida o'rnatilgan mutafakkir shoir o'zbek tilining asoschisi Alisher navoiy bobomiz obrazi bilan bog'liq (1991). Ushbu haykal mualliflari haykaltaroshlar E. Aliyev, N. Bandeladze, V. Degtyarovdir. 2001 – yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A. Rahmatullayev va P. Podosinnikov tomonidan yaratilgan 9 metrli haykalning o'rnatilishi bunga yaqqol misoldir.

Haqiqatni tarix sahifalaridan aslo o'chirib bo'lmaydi. Ular har qanday davrda ham haqiqatligicha qolaveradi. Zamonlar o'tib u albatta bo'y ko'rsatadi, tantana qiladi. Sohibqiron Amir Temur taqdiri bunga yaqqol misol bo'la oladi. 1993 – yil avgustida mamlakatimiz poytaxtining markazida buyuk davlat arbobi, yengilmas sarkarda Muhammad Tarag'ay Bahodir Amir Temurning mahobatli otliq haykali o'rnatildi. Realistik uslbdagi ishlangan mazkur monumentda kuchli plastik harakatlar ko'zga tashlanadi. 1996 – yil oktyabrda Amir Temurning 660 yillik tavallud to'yi mamlakatimizda zo'r tantana bilan nishonlandi. O'sha tarixiy kunlarda Samarqand va Shahrisabzda ulug' bobomizga yangi muhtasham haykallar o'rnatildi.

Buyuk ajdodlarimizning tavallud kunlarini respublika miqyosida tantana qilish Mustaqillikning o'ziga xos jihati sifatida yaxshi an'anaga aylanib qolgan. Va shu'runda yana bir chiryil fikrni yuritishimiz mumkin: Tarixiy xotira - xalq ma'naviyatining asosidir. Ana shu buyuk asosda, ma'naviy mulkimiz uchun butu hayotni Vatan ozodligi, xalq baxt – saodatiga baxshida etgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi turadi. Ushbu dovyurak vatan ximoyachisi xotirasini abadiylashtirish maqsadida ham 1998 – yilda yana bir hukumat qarori qabul qilindi. Shunga asosan Xorazm shahrida Jaloliddin Manguberdi yodgorligi barpo etildi.

Bundan tashqari I. Jabborov va K. Jabborovlar tomonidan olib borilgan ilmiy – ijodiy izlanishlar natijasida Farg'ona va Quva shaharlarida 1998 – yilda ilm –fan xazinasiga katta hissa qo'shgan vatandoshimiz Ahmad al – Farg'oniyga atab mahobatli haykallar o'rnatildi.

Dastgohli haykaltaroshlik.

Dastgoh haykaltaroshligiga mustaqil mazmunga ega bo'lgan, san'atning boshqa turlariga tobe bo'lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalar, uylarga qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi.[5]

R. Mirtojdiyevning dastgohli haykaltaroshlik sohasidagi tajriba va ko'nikmalari yetarli darajada ekanligini u yaratgan haykallar turkumi misolidan bilib olish mumkin. Haykaltaroshlikning dastgohlituri bo'yicha ikki bora, mahobatlisida esa yagona obraz yaratdi. Haykaltarosh „Bobur – Vatan sog'inchi“ nomli dastgohli asarida Ona Vatan mehridan yiroq bo'lgan sarkarda obrazini undagi sog'inch tuyg'ularini mahorat bilan amalga oshiradi.

Istiqlol davri haykaltaroshlikning yaqqol namoyandalaridan I. Jabborov, K. Jabborov, E. Aliyev, A. Rahmatullayev, N. Bondeladze, V. Degtyarov, R. Mirtojdiyev, P. Podosinnikov, A. Ryabtsev, P. Axmedzyanov, Sh. Usmonov, Q. Norxo'rozov, D. Ro'ziboyev, T. Tojixojayev, J. Quttimurodov, U. Mardiyev kabi bir qator ijodkorlarni ko'rsatib o'tish mumkin.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar Рекомендации References

1. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. „O'zbekiston“, 1999 yil.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., „O'zbekiston“, 1997.
3. Abdullayev N.U „San'at tarixi“. 1 – tom. Toshkent. O'qituvchi, 1986 yil.
4. Abdullayev N.U „San'at tarixi“. 2 – tom. Toshkent. San'at, 2001 yil.
5. Oydinov N. „O'zbekiston tasviriy san'atidan lavhalar“ Toshkent, O'qituvchi. 1997 yil.
6. O'zbekiston Badiiy akademiyasi nashri. „San'at“ jurnali.

